



**Abror XAYDAROV**

*Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi*

*E-mail: a.khaydarov1954@mail.ru*

*TDTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida*

### AXBOROTLASHGAN JAMIYAT IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING SOTSIAL OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatning ijtimoiy munosabatlarga, ayniqsa yosh avlodning sotsiallashtiruviga ta'siri tahlil qilingan. Axborot texnologiyalari, internet va sotsial tarmoqlar inson hayotiga chuqur singib, yoshlarning fikrlash, muloqot va madaniy identifikatsiya jarayonlarini o'zgartirmoqda. O'zbekiston misolida internet faolligi orqali jamiyatdagi transformatsiya jarayonlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, sotsial tarmoqlar va virtual muhitning ijtimoiy voqelik, ong va qadriyatlar tizimiga ta'siri, hamda yangi ijtimoiy munosabatlar modellari tahlil qilingan. Maqolada axborot va kommunikatsiya vositalarining inson hayotidagi o'rni sotsiologik va madaniy nuqtai nazardan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Axborotlashgan jamiyat, sotsial tarmoqlar, internet madaniyati, yosh avlodning sotsiallashtiruv, virtual reallik, ijtimoiy munosabatlar, axborot texnologiyalari, ommaviy kommunikatsiya, madaniy identifikatsiya, axborot madaniyati.

### INFORMATION SOCIETY AS A SOCIAL OBJECT OF SOCIAL RELATIONS

Annotation

This article analyzes the impact of the information society on social relations, especially on the socialization of the younger generation. Information technologies, the Internet and social networks are deeply embedded in human life, changing the processes of thinking, communication and cultural identification of young people. The example of Uzbekistan shows the transformation processes in society through Internet activity. Also, the impact of social networks and the virtual environment on social reality, consciousness and the system of values, as well as new models of social relations are analyzed. The article covers the role of information and communication media in human life from a sociological and cultural perspective.

**Key words:** Information society, social networks, Internet culture, socialization of the younger generation, virtual reality, social relations, information technologies, mass communication, cultural identification, information culture.

### ИНФОРМАЦИОННОЕ ОБЩЕСТВО КАК СОЦИАЛЬНЫЙ ОБЪЕКТ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация

В статье анализируется влияние информационного общества на социальные отношения, особенно на социализацию подрастающего поколения. Информационные технологии, Интернет и социальные сети глубоко проникли в жизнь человека, изменяя процессы мышления, коммуникации и культурной идентификации молодежи. На примере Узбекистана показаны трансформационные процессы в обществе посредством интернет-активности. Также анализируется влияние социальных сетей и виртуальной среды на социальную реальность, сознание и систему ценностей, а также на новые модели социальных отношений. В статье рассматривается роль информационно-коммуникационных средств в жизни человека с социологической и культурологической точки зрения.

**Ключевые слова:** Информационное общество, социальные сети, интернет-культура, социализация подрастающего поколения, виртуальная реальность, социальные отношения, информационные технологии, массовая коммуникация, культурная идентификация, информационная культура.

**Kirish.** Bugungi kunda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni, odamlar o'rtasidagi muloqot shakllarini va yosh avlodning sotsiallashtiruv jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Axborotlashgan jamiyat nafaqat iqtisodiy va madaniy sohalariga, balki inson ongi, tafakkuri va har kunlik turmush tarziga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, internet va sotsial tarmoqlar insonlarning ijtimoiy faolligi, axborot qabul qilish qobiliyati va fikrlash uslubini qayta shakllantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, axborotlashgan jamiyatni ijtimoiy munosabatlarning sotsial obyekti sifatida o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Axborotlashgan jamiyat muammosi so'nggi o'n yilliklarda sotsiologiya, falsafa, axborotshunoslik va kommunikatsiya sohalarida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Ziyolilar tomonidan axborot maydonining ijtimoiy munosabatlarga, ayniqsa yosh avlodning sotsiallashtiruviga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Axborot

texnologiyalari inson ongi, muloqot madaniyati va tafakkur uslubiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgani qayd etiladi. O'zbekiston misolida internet foydalanuvchilari soni ortib, yoshlarning axborot maydonidagi faolligi kuchaygani jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqilmoqda. Lekin bu jarayonda yoshlar mafkuraviy immunitetning yetishmasligi tufayli axborot tahlilida qiyalishlari ham qayd etilgan.

Mass-media va sotsial tarmoqlarning ta'siriga oid tahlillarda M. Maklyuen, M. Kastels, J. Bodriyyar, S. Jijek kabi mutaxassislar alohida o'rin tutadi. Ularning fikriga ko'ra, "virtual" va "real" sotsiumlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir insonni yangi sotsial voqelikka moslashishga majbur qilmoqda. Sotsial tarmoqlarning nazariy asoslari R. Solomonoff va A. Rapoportdan boshlangan bo'lib, keyinchalik Facebook, LinkedIn, MySpace kabi platformalar faoliyati orqali bu jarayon global miqyosda rivojlangan. Axborotlashgan jamiyatda bilim, axborot va kommunikatsiya faoliyati ishlab

chiqarishning yangi manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. Shunday ekan, axborotlashtirish jarayonlarini sotsiologik jihatdan o'rganish jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy olimlardan B. Aliev, A. Melikulov, A. Mo'minovlar ushbu muammoning ijtimoiy-falsafiy va iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi davrda axborot texnologiyalari ishlab chiqarish, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning ajralmas omiliga aylangan. Axborotlashgan jamiyat inson tafakkuri, xulq-atvori va madaniyatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, uni yangi sotsial jarayonlarga moslashishga undamoqda. Shu bois axborot jarayonlarining ijtimoiy-psixologik, madaniy va iqtisodiy oqibatlarini o'rganish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

O'zbekiston global axborot makoniga faol kirib borayotgan bir paytda yoshlarning sotsiallasuvi ham tubdan o'zgarib bormoqda. Yoshlar internetdan samarali foydalanishda ba'zan mafkuraviy immunitet yetishmasligi, axborotni tanlab qabul qilishdagi qiyinchiliklar tufayli transformatsiyalashgan jamiyatga moslashishda muammo yuzaga kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda internet foydalanuvchilari soni 31 milliondan oshib, aholining 3/4 qismidan ortig'i tarmoqdan faol foydalanadi. Mobil internetning qamrovi 98–99 foizga yetgani internet-kommunikatsiyaning ijtimoiy hayotdagi rolini yanada kuchaytirgan.

Internet jurnalistikasi va sotsial media tahlilida mahalliy tadqiqotlar ko'paygan bo'lsa-da, sotsial tarmoqlarning ong, tafakkur va kommunikatsiya jarayonlariga ta'siri hali yetarli o'rganilmagan. Jahon ilmida bu yo'nalishning nazariy asoslarini M. Maklyuen, M. Kastels, J. Bodriyyar, S. Jijek kabi tadqiqotchilar ishlab chiqqan. Sotsial tarmoq tushunchasi esa ilk bor J. Barns tomonidan qo'llangan bo'lib, keyinchalik Facebook, LinkedIn va boshqa platformalar orqali global miqyosda rivojlangan.

Bugungi jamiyat tobora "internet-kommunikatsiya jamiyati"ga aylanib, unda madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar internet atrofida shakllanmoqda. Onlayn va offlayn muhitlarning o'zaro ta'siri esa yangi sotsial model va madaniy tamoyillarni yuzaga keltirmoqda. Shaxs bu ikki makon o'rtasida yashar ekan, qadriyatlar, xulq namunalari va madaniy orientirlarning qay tarzda o'zgarishi muhim ilmiy savol bo'lib qolmoqda.

Shu sababdan jamiyat oldida turgan vazifa — virtual va real muhitni qarama-qarshi qo'ymasdan, ularni uyg'unlashtirish, insonning onlayn makonga haddan tashqari bog'lanib qolishining oldini olish va uni real ijtimoiy hayotga qaytarish mexanizmlarini ishlab chiqishdir.

**Tahlil va natijalar.** Yangi axborot texnologiyalari faoliyatining ijtimoiy-gumanitar natijalari benihoya rang-barangdir. Ular inson mehnat faoliyati xarakterini, uning ijtimoiy aloqalarini, ijtimoiy munosabatlarning shakl va mazmunini o'zgartiradi. Shu bilan bog'liq ravishda tadqiqotchilarning diqqat-e'tibori markazida axborot texnologiyalarining inson ruhiyatiga ta'siri, kompyuter vositasidagi muloqot va Internetdagi inson faoliyatining o'ziga xos jihatlar kabi masalalar o'rin oldi. Bir necha o'n yil avval (1962 yili) televidenie va axborot uzatishning boshqa elektron vositalari rivoji bilan bog'liq ravishda M. Maklyuen fikrlash usulidagi o'zgarishni qayd etgan edi (chiziqli fikrlash o'rmini "mozaikali" fikrlar egallay boshladi, tafakkurning asosiy tuzilmalash tamoyili sifatida mifning qayta tilanishi va h.k.). M. Maklyuen fikrlash usuli va sotsial munosabatlarning o'zgarishiga "muloqot vositalari"ning ta'siriga alohida e'tibor qarati-b, madaniyat sotsiologiyasi sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarning yo'nalishini belgilab berdi. Shundan so'ng

mass-media kommunikatsiyalari M. Kastels, J. Bodriyyar, P. Virilyo, E. Toffler, S. Jijek, U. Eko, J. Gitomer kabi tadqiqotchilarning diqqat markazidan o'rin oldi. Mazkur olimlar telekommunikatsion texnologiyalar vositasida yaratilgan virtual reallikni o'rganishni tahliliy-nazariy tadqiqotchilik darajasiga olib chiqdi-lar va turli "simulyar"larning paydo bo'lishi, ularning sotsial voqelikning asosini tashkil etuvchi makondagi munosabatlarga ta'siri masalalarini chuqur tadqiq etdilar.

XXI asr axborot asri. Zero bugungi globallashuv jarayonining asosiy kuchi ham, quroli ham axborot. Uning demokratik jamiyatdagi roli va mavqei inkor etib bo'lmaydi. "Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar ti'giz, shu qadar tezkoriki, endi ilgari-gidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yo millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas." Shu o'rinda, axborot asrida internetning qay darajada muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etish joiz. Zero, "Internet — shunchaki navbatdagi texnik ixtiro emas. U axborot davrining hal qiluvchi texnologiyasidir".

Sotsial tarmoqlarning zamonaviy nazariyasiga Rey Solomonoff (Ray Solomonoff) va Anatoliy Rapoport (Anatol Rapoport) tamal toshini qo'yishdi. 1951–1968 yillarda vengriyalik matematiklar Pol Erdos (Paul Erdos) va Alfred Renyi (Alfred Renyi) sotsial tarmoqlarning tashkil topishi omillariga bag'ishlangan sakkizta maqola yozishdi.

1995 yilda Classmates.com ("Odnoklassniki" uning rus tilidagi o'xshashi) amerika internet portalining yaratilishi zamonaviy sotsial tarmoqlar rivojida katta yutuq bo'ldi va keyingi o'nlab sotsial tarmoqlarning shakllanishiga turtki berdi. 2003–2004 yillarda LinkedIn, MySpace va Facebook kabi sotsial tarmoqlarning vujudga kelishini butun internet jamoatchiligi shov-shuvli hodisa sifatida qabul qildi. LinkedIn sotsial tarmog'i xizmat yuzasidan manfa-atli aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash uchun yaratilgan bo'lsa, MySpace va Facebook asoschilari asosiy e'tiborni turli g'oya va fikrlarni ifodalash orqali amalga oshadigan sotsial qoniqishga qaratishdi. A. Maslouning ehtiyojlar nazariyasiga ko'ra, fikrni ifoda etish munosabat o'rnatish va tan olinishlardan yuqoriroq turadigan insoniy ehtiyojdir. Tom ma'noda, sotsial tarmoqlar har bir foydalanuvchi o'z fikr mulohazalarini ifoda etish orqali virtual "men"ligini shakllantirishi uchun texnik va sotsial asos bo'la oladigan internet-boshpana vazifasini o'tadi. Har bir foydalanuvchi nafaqat suhbatlashish va erkin fikr bildirish, balki o'z fikrini sotsial tarmoqning ko'pmillionli auditoriyasi bilan o'rtoqlashish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Bugun kelib sotsial tarmoqlar kundalik hayotning bir qismiga aylandi. Aslida internetning o'zini ham sotsial tarmoq deya izohlash mumkin, ammo bu juda umumiy tushuncha bo'lib qoladi. Qisqa ta'rif joiz bo'lganda, sotsial tarmoqlarga quyidagicha izoh berish mumkin: bu — umumiy qiziqishlar, muayyan prinsip-larga ega insonlarning birlashib, qulay vositalar orqali o'zaro muloqot qilishi-ga, o'z fikrini erkin ifoda etishiga imkon yaratadigan onlayn servis. Unda har bir inson o'z-o'ziga piarmen, bir-biri uchun esa axborot manbaiga aylanadi. Hozirda butun dunyo bo'yicha bunday saytlar soni yuzdan ortiq.

Bugun "Odnoklassniki", "Facebook", "Twitter", "Moy mir" kabi yuzlab sotsial tarmoqlarning foydalanuvchilari soni bir necha millionga yetdi. Ayniqsa, 15–40 yoshdagilarning aksariyati allaqachon o'z virtual olamini yaratib bo'lgan. Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimni olish usuli hisoblash texnikasini qo'llashga asoslangandir. Zamonaviy fan metodlari hajmi jihatidan juda katta bo'lgan ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi, yangi (kuzatuv, eksperiment,

modellashtirishga asoslanmagan) yondashuvlar qo'llaniladi. Alohida faktlarni izlash o'rniga korrelyatsiyalarni, tendensiyalarni o'rnatish uchun ma'lumotlar bazasi qo'llaniladi, ilmiy ma'lumotlar axborot operatsiyalari orqali olinadi. Demak, yangi axborotlashgan jamiyatda ishlab chiqarishning manbai bilimni to'plash texnologiyalari, axborotni qayta ishlash va simvolik kommunikatsiyalarga bog'liq.

XXI asr — axborotlashuv va tezkor rivojlanish asridir. Hozirgi davrda axborotlarsiz ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu — kompyuterlar va axborot tizimlari, mahalliy va global tarmoqlar, umu-mjahon internet tarmog'i, multimediy texnologiyalari va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Ular jamiyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Insoniyat axborotlashuv sohasida inqilobiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Demak, insoniyat faoliyatining barcha jabhalarini kompyuterlashtirish jamiyat va

ijtimoiy-siyosiy strategik o'zgarishlar oldidagi muhim masala sifatida maydonga chiqmoqda. Aynan shuning uchun ham axborot va axborotlashtirish masalalarini sotsiologik jihatdan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa va takliflar.** Axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlar, ayniqsa yosh avlodning sotsiallasuvi yangi shakl va mazmun kasb etmoqda. Internet va sotsial tarmoqlar inson ongi, muloqot madaniyati va madaniy identifikatsiya jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda internet faolligining oshishi jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiya jarayonlarini tezlashtirmoqda. Shu bilan birga, axborot oqimiga tanqidiy yondashish qobiliyatining yetishmasligi kabi muammolar ham mavjud. Shu bois, axborot texnologiyalarining ijtimoiy ta'sirini ilmiy asosda o'rganish va axborot madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Алиев Б.А., Меликулов А.Н. Жамиятни ахборотлаштиришда иктисодий мезоннинг ўрни//“Иктисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2015 йил./ [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz).
2. Гитомер Дж. Бизнес в социальных сетях. СПб.: Питер, 2013.
3. Abror Haydarov. Culture of obtaining political information in an informed society. Web of Teachers; Inderscience Research// olume 3, Issue 1, January – 2025 ISSN (E): 2938-379X
4. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура: Пер. с англ. под науч. ред. О.И. Шкаратана. — М.: ГУ ВШЭ, 2000. — 608 с.
5. Мўминов Аю Ахборотлашган жамият сари.- Тошкент: Турон,2013.- 154 б.
6. Тоффлер Э. Третья волна. М.: ООО "Фирма "Издательство АСТ", 1999, сс.6-261./ <http://filosof.historic.ru/books/item/f00/s00/z0000263/st000.shtml>
7. Тоффлер Э. Шок будущего. М.: АСТ, 2004.- 557 с.
8. Уэбстер Ф. Теории информационного общества.- М.: Аспект Пресс, 2004.- 400 с.
9. Федосеева Н.Н. Демократия в информационном обществе// <https://cyberleninka.ru/article/n/demokratiya-v-informatsionnom-obschestve>
10. Haydarov Abror. Human potential (potential) information society as a development factor/ American Journal of Research in Humanities and Social Sciences ISSN (E): 2832-8019 Volume 21, | February, 2024. P.139-142